



O'QUV MATNLARINI BOG'LANISHLI NUTQQA OID KO'NIKMALARINI O'QUVCHILARDA SHAKLLANTIRISH

Hamrayeva M.

Qarshi davlat universiteti doktoranti

Tayanch soʻzlar: oʻquv matni, bogʻlanishli nutq, anglash, koʻnikma, mashq, muhokama.

Ключевые слова: учебный текст, связная речь, понимание, умение, упражнение, обсуждение.

Key words: educational text, connected speech, comprehension, skill, exercise, discussion.

Kirish. Buyuk kelajak taraqqiyoti tomon odimlab borayotgan mamlakatimizda kadrlar masalasi, yosh avlod tarbiyasi birinchi o'rindagi muhim masalalar qatorida bo'lib qolmoqda. Zeroki, O'zbekiston ravnaqi, kelajagi shu yoshlar, ya'ni zamonaviy kadrlar qo'lida ekan, jamiki e'tibor ularning hur fikrli bo'lishi, jahon ta'lim standartlariga mos kela oladigan ta'lim olishi buyuk kelajak uchun qo'yilayotgan mustahkam po'ydevordir. O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharaflil va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Tabiiyki hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar: «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvlambor farzandlarimizning unib, o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishga bog'liqdir.»

Adabiyotlar tahlili va metodlari. Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar

hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

Muhokama. Nutq- fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli ham hisoblanadi. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitishdir. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvafaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishli materiallar bilan ishlash, mantiqiy fikrlashga yo'naltirilaigan ish turlariga katta e'tibor qaratiladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, muvafaqiyatli bo'ladi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langan. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmas, fikrni ifodalab berish qiyin".

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishni ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, Grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning



1-rasm. Bog'lanishli nutqni o'stirish ko'nikmasi.



2-rasm. Matnli mashq turlari.

muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha o'quv predmitlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish ularga aniq ko'nikmalarini singdirish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil mashq sifatida bog'lanishli nutqini o'stirishda quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

O'qituvchi o'quvchini bayon, insho yozishga tayyorlashda shu mashqning pedagogik maqsadini, o'quvchilarga nimaga o'rgatishni, tafakkuri va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchilligida shu bayon va inshoning tutgan o'rnini aniq ko'z oldiga keltirish kerak. Shuning uchun o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga oid mashqlar rejasi tuzib olinadi. Rejada o'quvchi yoshiga mos bayon va insholar hisobga olinadi.

Metodik an'anaga ko'ra matnli mashqlar quyidagi turlari mavjud. Ular:

Har uchala janr uchun foydalaniladigan materiallarda ham, qurulish vositalarida ham, til vositalarini tanlashda ham o'z xususiyatlari mavjud bo'lib, bu insho, bayon yoki matn yozayotganda o'qituvchi va o'quvchi matnning janr xususiyatlarini hisobga oladi.

Tasvir. Tasvirda sujet, qatnashuvchi shaxlar bo'lmaydi. Unda tabiat, hayvon va boshqa predmitlar tasvirlanadi. O'quvchilar o'qish savodxonligida berilgan matnlarni o'qib, qayta hikoya qilishadi. O'qigan matnlaridan bayon yoki insho yozadilar. Tasvir o'quvchilar uchun qiyin janrlardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tasvir janri orqali bayon yoki insho yozish bilan chegaralanadi.

Hikoya. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr. Chunki, bu janr jo'shqin, jonli, ta'sirchan bo'ladi. "o'qish savodxonligi" kitobida hikoyalar ko'p berilgan bo'lib, bunda o'quvchi hikoyalarni o'qib o'ziga xulosa chiqaradi.

Muhokama. Bog'lanishli matnni qiyin shakli hisoblanib, boshlang'ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsfiya qilinmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari muhokama elementlaridan foydalanadilar. Masalan, "Qishda



qushlarga in qurib berish kerak”, ”Qushlar inlarini buzish mumkin emas” mavzularida o’g’zaki hikoya tuzilsa, muhokama janri albatta ishtiroki ko’rinadi.

Xulosa. O’qituvchi bog’lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq bajarish kerakligi aytiladi. O’quvchilar hikoya, tasvir va muhokama janrlarini o’rganadilar. Bunda hikoya janrida ko’proq matnlar tuzdiriladi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini bog’lanishli nutqini egallash darajasiga qarab, matnga tasvir va muhokama elementlari ham qo’shib boriladi. Hozirgi paytda bolalarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta’minlash imkonini beruvchi bolalar o’quvini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilmoqda. Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo’lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko’p asrlik tajribasini o’zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi – til orqaligina berish mumkin. Til – hayotimizning ajralmas qismi bo’lib, biz unga o’z-o’zidan bo’lishi shart bo’lgan narsa sifatida qaraymiz.

Adabiyotlar:

1. Ta’lim to’g’risida. O’zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O’zbekiston, 2020.
2. Yo’ldosheva D.N. Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 168 b.
3. Lerner I. Ya. Didakticheskiye osnovy metodov obucheniya Tekst. / I. Ya. Lerner.–M.: Pedagogika, 1981. –186 s.
4. To’xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O’zbek tili o’qitish metodikasi. –T., 2010. – 184 b.
5. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o’qitish metodikasi Boshlang’ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik.- Toshkent.”Nosir”nashriyoti 2009.321-330-bet
6. Hamroyev M., Muhammedova D. Ona tili.-Toshkent,2008. 330-333-bet
7. Xosiyat Abdurasul qizi Abduqahhorova. Ona tili mashg’ulotlari o’quv topshiriqlarining berilishi va ularning mazmuni. Academic Research in Education Sciences ISSN:2181-1385 Volume 3 ISSUE 5 2022. 237-243-bet

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o’quv matnlarini bog’lanishli nutqqa oid ko’nikmalarini shakllantirish yo’llarini o’rgatadi.

РЕЗЮМЕ

Эта статья научит вас способам формирования навыков, связанных с связной речью с учебными текстами.

SUMMARY

This article will teach you ways to build skills related to connected speech with educational texts.